

INGLIZABON TARIXIY-ADABIY ASARLARDA BOBUR MIRZO TALQINI

Sahodillayeva Sadoqat A'zimboy qizi
Namangan Davlat Universiteti 2-kurs magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada Inglizabon tarixiy-adabiy asarlarda buyuk bobokalonimiz Zahiriddin Muhammad Bobur haqida yaratilgan asarlarda ma'lumotlar keltirib o'tiladi va ularni qisqacha tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: tarixiy-adabiy asar, Bobur Mirzo, inglizabon adabiyot, muallif fikri, tarixiy haqiqat, badiiy talqin, talqin, tasvir.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng Bobur va Boburiylar tarixi-madaniyatini o'rganish bo'yicha O'zbekistonda ko'plab ishlar amalga oshirildi. Buyuk bobokalonimiz Zahiriddin Muhammad Bobur xaqida ko'plab tarixiy, tarixiy-adabiy va badiiy asarlar yaratildi. Uning xayot yo'li va ijodini o'rganish uchun xukumatimiz tomonidan ko'plab xayrli ishlar amalga oshirildi va Bobur nomidagi Xalqaro jamg'arma (1992 yil) ilmiy ekspeditsiyasi ham tashkil etildi. Ayniqsa, Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarini keng tadqiq qilish ishlari avj oldi. Bu borada S.Azimjonova, H.Sultonov, H.Boltaboev, N.Otajonov, M.Holbekov, Z.Mashrabov, A.Qayumov, A.Ibrohimov, Z.Teshaboeva, Z.Xolmanova, A.Tursunov va boshqa ko'plab olimlarimiz Bobur va uning asarlarini tarixiy va adabiy jihatdan tadqiq etganlar.¹

Bobur va Boburiylar tarixi va madaniyatini o'rganish nafaqat yurtimiz olimlari va yozuvchilarini, balki xorijiy olimlarni, jumladan G'arbiy Yevropa olimlarini ham o'ziga jalb qilgan va ularda katta qiziqish uyg'otgan. Ma'lumotlarga ko'ra Bobur xaqida Yevropada ilk bor yaratilgan asar, bu frantsuz sayyohi va tabibi Frantsua Bernening "Boburiylar saltanatining so'nggi tarixi" nomli ilmiy-ma'rifiy asaridir. Bu asar 1680 yilda yaratilgan va o'sha davr siyosiy doiralarida yuqori baholangan va noyob manba hisoblangan.² Keyinroq G'arbliklar Bobur nomini 1697 yili frantsuz sharqshunos olimi Bartolame Erbalo Molenli orqali eshitdilar. U "Sharq kutubxonasi" qomusida o'zining "Bobur yoki Babar" nomli maqolasida Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur haqida ilk bor frantsuz kitobxonlariga ma'lumot bergan edi. Keyinchalik 1705 yili Boburnomaning Farg'ona tasviri golland tilida Vitsen tomonidan bosilib chiqdi³.

¹ G'aybulloh as-Salom, Otajon N. Jahongashta Boburnoma. – Toshkent: Fan, 1996; Boltaboev H. Xorijda Boburshunoslik. –T.: 2008, Mumtoz so'z qadri. – Toshkent: Adolat, 2004; Sultonov H. Boburiynoma. –Toshkent. SHarq 1997; Ibrohimov A. Boburnoma-buyuk asar. –Toshkent: 2000; Xolbekov M. Uzbeksko-frantsuzskie literaturnye vzaimosvyazi (v aspekte perevoda, kritiki i vospriyatiya). Avtoref. diss. ... kand. filol. nauk. – Tashkent, 1991; Xolmanova Z. «Boburnoma» leksikasi tadqiqi. Filol. fan. dok. ... diss. – Toshkent, 2009; Teshaboeva Z. «Boburnoma»ning inglizcha tarjimalaridagi frazeologik birliklar va ularning milliy-madaniy xususiyatlari. Fal.fan. filol. fan dok. ... diss. – Toshkent, 2017.

² Boltaboev H. Xorijda Boburshunoslik. –T.: 2008. - B 73.

³ Ibrohimov A. Boburnoma-buyuk asar. –Toshkent: 2000. - B 13.

Xorijiy boburshunoslikka nazar tashlaydigan bo'lsak, G'arbiy Yevropada Bobur va uning ijodini o'rganish asosan XIX asrdan boshlangan. Bu borada frantsuz va ingliz sharqshunoslarining xizmatlari beqiyos bo'ldi. Ingliz sharqshunos olimlari Jon Leyden va Uil'yam Erskinlarning uzoq yillik mexnatlari natijasida 1826 yili "Boburnoma" ingliz tilida nashr etildi. 1828 yilda mazkur inglizcha tarjimadan nemis olimi A.Kayzer asarni nemis tiliga qisqartirib tarjima qiladi va Leyptsigda nashr ettiradi. 1871 yilda esa taniqli frantsuz sharqshunos olimi Pave de Kurteyl tomonidan "Boburnoma" frantsuz tilida nashr ettirildi. Mazkur tarjimalardan so'ng Yevropada Bobur shaxsiga qiziqish ortib bordi va u haqida Yevropaning turli tillarida ko'plab asarlar yaratildi. Bu asarlar asosan Bobur va Boburiylarning Hindistonda o'rnatgan saltanati va u yerda amalga oshirgan ishlariga bag'ishlanadi. Xorijiy adabiyotlarda faqatgina Bobur shaxsi va uning amalga oshirgan ishlari emas, balki butun Boburiylarning xayoti va faoliyati yoritiladi. Bunga sabab Bobur Mirzoning Hindistonda atigi to'rt yilgina yashaganligidadir. Masalan, U.Erskinning "Temuriylar sulolasidan bo'lmish Boburshoh va Humoyun davridagi Hindiston tarixi", F.Bernening "Boburiylar saltanatining so'nggi tarixi", L.Sharmaning "Mo'g'ullar saltanati" va shu kabi boshqa ko'plab asarlarda Bobur va boburiylarning Hindistonda olib borgan ishlari tasvirlanadi.

Bugungi kunda ham ko'plab inglizzabon olimlar va yozuvchilar Bobur va boburiy sulola vakillariga bag'ishlab ko'plab asarlar yaratmoqdalar va bunday ahamiyatga molik ishlar davom etmoqda. Hususan, shoir, yozuvchi va dramaturg Farzona Mun ham Bobur va boburiy hukmdorlar haqida bir qator asarlar yaratgan jahon adabiyotining yetakchi vakillaridandir.⁴

Farzona Mun kelib chiqishi Pokistonlik bo'lgan AQSh fuqorosi bo'lib, bugungi kunda u turmush o'rtog'i va qizi bilan AQShning Ogayo shtatida yashab ijod qilmoqda. U tarix, siyosat, falsafaga qiziqadi. Farzona Munning ko'plab asarlari AQSh, Kanada va Hindistonda chop qilingan. U Hindiston tarixiga oid bir qancha asarlar bitgan. Farzona Munning ilk asarlarida Hindistondagi oddiy xalqning hayoti, sharqona madaniyati aks ettirilgan. U Bobur va boburiy hukmdorlarga bag'ishlab bir nechta badiiy asarlar yaratgan, ya'ni XVI-XVIII asrlarda yashab o'tgan oltita podshoga bag'ishlab asarlar yozgan.

Farzona Mun o'z asarining so'z boshida: "Ushbu kitobim o'z ichiga Hindistonning boy tarixi, madaniyati va urf-odatlarini qamrab olgan."⁵ deb yozadi.

Farzona Munning asarlari quyidagilardir:

1. *Babur, The First Moghul In India (Bobur Hindistondagi birinchi (mo'g'ul) hukmdor)*

⁴ M.Qoraboyev. Bobur va boburiy zoda shaxzodalar xorijiy adiblar talqinida. Maqola. Namangan 2018.

⁵ Moon Farzana. Babur the first moghul in India. Preface. Mehra Offset Press, Delhi. 1997.

2. *The Mogul Exile (Quvg'indagi (mo'g'ul) hukmdor)*
3. *Divine Akbar and Holy India (Ilohiy Akbar va muqaddas Hindiston)*
4. *The Mogul Hedonist (Jahongir)(Mo'g'il shohi-Jahongir)*
5. *Glorious Taj and Beloved Immortal (Shah Jahan) (Shonli toj va mangu muhabbat- (Shoh Jahon)*

1. *The Mogul Saint of Insanity (Oshiq avliyo hukmdor)*

Farzona Munning birinchi kitobi "Babur, The First Moghul In India" ("Bobur Hindistondagi birinchi (mo'g'ul) hukmdor" *tarjima o'zimizniki*) deb nomlanib, u Z.M.Boburga bag'ishlangan bo'lib, unda Boburni ota tarafdin Temurning oltinchi avlodi hamda ona tomonidan Chingizxonning beshinchi avlodi ekanligini ta'kidlaydi. Ushbu asarda Boburning Qobuldagi va Hindistondagi hukmronligi, mashxur Kohinur haqida gapiradi. Shuningdek, asarda Bobur bog'lar, saroy, masjid va madrasalar bunyod ettirish bilan birga Agradan Qobulgacha katta yo'l qurish to'g'risida bergan farmoni haqida ham ma'lumotlar keltirilgan.⁶

Bobur shoir bo'lganligi hamda u moddiy boylik uchun kurashadigan shoh emas, balki bilim boyligi uchun kurashuvchi shoh deb tasvirlaydi. Bobur o'zining shavkatliligi uchun "Yo'lbars" laqabini, hamda besh qirollik hazinasiga teng boyligini bechora va qambag'allarga bo'lib bergandan so'ng o'ziga Qalandarshoh taxallusini olganligini qayd etgan. Uning o'limi ham hayoti kabi mag'rur tarzda yakun topganligini tarixiy haqiqat asosida badiiy talqin ettirgan. Bundan tashqari, Bobur o'z hayotini sevimli farzandi Humoyun tirik qolishi uchun qurbon qilganligini, umrining ohirida Bobur o'g'li Humoyunga "Ukalariga qarshi borma (g'amho'rlik qil) hatto ular bunga loyiq bo'lmasada" degan fikrni bildirganligini ishonarli tarzda aks ettiradi.⁷

Manbalardan bilamizki, Bobur qirq sakkiz yillik umrining o'ttiz olti yilini hukmronlikda o'tkazdi va yangi Hindistonda uch yuz yildan oshiq hukmronlik qilgan sulolaga asos soldi. Boburiylar tomonidan qoldirilgan asarlar bilan bir qatorda ular barpo qilib ketgan qurilish ishootlari bugungi kunda ham butun dunyoni lol etib kelmoqda.

Muallifning ikkinchi kitobi "The Mogul Exile" ("Quvg'indagi (mo'g'ul) hukmdor" *t.o'z.*) deb nomlanib, u Nasiriddin Muhammad Humoyunshohga bag'ishlangan. Ushbu tarixiy, biografik asar Agrada Humoyunning sotqin ukalari hamda Hindistondagi Afg'on boylari hoinligiga qarshi kurashi sahnasi bilan boshlanadi. Shuningdek, muallif o'z asarida Humoyun taxtini ukalarining sotqinligi va aldovi tufayli qo'ldan ketganligini tasvirlaydi. Bundan tashqari, asarda Humoyunning Hamidabonuga uylanishi, Akbarshohning tug'ilishi haqida ma'lumotlar keltiriladi. Asarda Akbar tug'ilib, so'ng Humoyun va uning yaqinlarining mamlakatdan qochishiga to'g'ri kelganligi, kichkina Akbarni Humoyunning ukasi Komron tomonidan qurol, yani garov sifatida olib qolinishi yoritib beriladi. Yana Humoyun o'z rafiqasi bilan Eronda Shoh Tahmosp saroyida

⁶ M.Qoraboyev. Bobur va boburiyzoda shaxzodalar xorijiy adiblar talqinida. Maqola. Namangan 2018.

⁷ M.Qoraboyev. Bobur va boburiyzoda shaxzodalar xorijiy adiblar talqinida. Maqola. Namangan 2018.

panoh topishi, unga barcha sharoitlar yaratib berilgani va kibrona munosabatda bo'linganini ajoyib syujetlar orqali talqin etgan.

Yozuvchi F.Munning mahorati shundan iboratki, u o'z ijodiy mahsullari bo'lgan badiiy matnlarni san'atkorona yarata olgan. O'z asarlari orqali inson hissiyotlarini, tuyg'ularini, hayajonlarini, azob va qayg'ularini ifodalash, shu orqali tinglovchi yoki kitobxonni ta'sirlantirishni istaydi. Ana shunday hollarda ba'zan mubolag'a, ba'zan o'xshash- qiyoslash kabi tasviriy vositalardan foydalanadi.

F.Mun o'z asarlarida badiiy matn turlarining deyarli barchasidan mohirlik bilan foydalangan. Bular: hikoya mazmunli matnlar (Le texte narratif – narrativ matn); tasviriy matnlar (Le texte descriptif – deskriptiv matn); izoh mazmunli matnlar (Le texte argumentatif-argumentli matn); didaktik matnlar (Le texte explicatif- eksplikativ matn); xabar mazmunli matnlar (Le texte informative - informativ matn); buyruq mazmunli matnlar (Le texte injonctif-injonktiv matn); hissiy ifoda mazmunli matnlar (Le texte expressif - ekspressiv matn)dir.⁸

Aytish joizki, adiba asarlarini o'qigan har qanday o'quvchi o'sha davrning turmush tarzini, tinchlik va farovonlik yo'lidagi jangu-jadallarni, kishilar o'rtasidagi turli munosabatlarni, boburiylar saltanati ruhiyatini his qiladi.

Zahiriddin Muhammad Bobur Hindistonda barpo etgan buyuk sulolaning tarixi va an'analari, yuksalishi va tanazzuli haqida bugungi kunda ham jahon adabiy maydonida ko'plab yangi badiiy asarlar dunyo yuzini ko'rmoqdaki, mazkur asarlar mualliflarini dunyo kitobxonlariga tanilib, kitoblari sevib mutolaa qilinmoqda. Ana shunday yozuvchilardan biri Diana va Maykl Prestonlar bo'lib, ular *Aleks Rezerford* taxallusi bilan ijod qilishmoqda.

Bu adiblar 2009 yildan boshlab Diana va Maykl Preston Aleks Rezerford taxallusi bilan *“Buyuk Mo'g'ullar Imperiyasi”* rukni ostida tarixiy romanlarini nashr ettira boshlashdi.

Boshqa asarlarda bo'lganidek, mualliflarni qahramonlarning xarakteri va ichki kechinmalari qiziqtiradi. Badiiy asar yozish orqali mualliflar qahramonlar, voqea-xodisalar, ular yashab o'tgan muhit va sharoitlar kitobxonlarga yanada yaqinroq bo'lishini, uni o'sha joy va vaqt muhitini xis qilishini inobatga olishgan.

Mazkur rukndagi romanlar Boburiylar imperiyasining shonli o'tmishi, jangu-jadallari haqida hikoya qiladi. Ular ikki asrlik voqealarni o'z ichiga oladi hamda Boburiylar sulolasining olti nafar – har biri alohida *shaxs* sifatida e'tirof etilgan imperatorlari tarixini yoritib beradi.⁹

Ularning birinchi asari *“Raiders from the North”* (*“SHimollik otliqlar”*) deb nomlanib, u 2009 yilda nashrdan chiqqan. Mazkur roman buyuk sarkarda,

⁸ Matyoqubova D. Badiiy matnning lisoniy tahlili. Ma'ruzalar matni. AnDU. 2008. 7-b.

⁹ M.Qoraboyev. Boburiylar sulolasi haqida yangi badiiy asarlar. Maqola. Namangan 2018.

shoh va shoir Boburga bag'ishlangan. Unda Boburning 1525 yili Markaziy osiyodan Hindistonga yurishi, uning Afg'oniston tog'lar, Kashmir dalalari uzra uzra Bengaliya o'rmonlarigacha bo'lgan xududda tashkil qilgan imperiyasi haqida haqida hikoya qilinadi. SHuningdek, jang maydonlaridagi jasorati, ulkan maqsadlarni ko'zlashi, go'zallikka bo'lgan ishtiyoqi dunyoning oltidan biriga teng Imperiyaga asos solinishi haqida ham bayon etiladi. Mualliflarning ta'kidlashicha, Boburiylar sulolasi nomi uzoq Yevropada hukronlik va boylik ramzi sifatida hayrat bilan e'tirof etila boshlandi.

Ikkinchi asar *"Brothers at War"* (*"Og'alar jangi"*) deb nomlanib, u 2010 yilda nashrdan chiqqan. Asar Boburning to'ng'ich o'g'li ikkinchi boburiy shoh Humoyunga bag'ishlangan bo'lib, u Humoyunshohning dastlabki hukmronligi va uning davlatni qo'ldan boy berishi, hamda davlatni qayta egallashga bo'lgan kurashlari haqida, nafaqat tashqi balki o'z inilari bilan bo'lgan janglari tug'risida hikoya qilinadi. Ushbu roman tarjimon Yu.K. Rybakova tomonidan ruschaga tarjima qilinib, 2015 yil *"Velikiy Mogol"* nomi bilan nashrdan chiqdi.

Mazkur *"Buyuk Mo'g'ullar Imperiyasi"* rukni ostida tarixiy romanlarning navbatdagisi *"Ruler of the World"* (*"Dunyo hukmdori"*) deb nomlanib, u 2011 yilda nashr etilgan. Asar buyuk Boburiylar sulolasining eng yirik vakili adolatli va oqil podshoh Akbar va uning hukmronligiga bag'ishlangan. Asar 2015 yil V.D.Yurgaytite tomonidan *"Vladika mira"* nomi bilan rus tilida nashr etildi.

"The Tainted Throne" (*"Darz ketgan taxt"*) asari 2012 yilda nashrdan chiqqan bo'lib, Jahongir va uning hukmronk davri yoritilgan, unda ota va o'g'il o'rtasidagi ishonchsizlik va raqobat muxiti va ana shu muxit ta'siri ostida mustahkam va bardoshli xokimiyatni darz ketishi hikoya qilingan.

Keyingi asar *"The Serpent's Tooth"* (*"Ilonning tishi"*) deb nomlanib, u 2013 yilda nashrdan chiqqan. Asarda o'z suyukli rafiqasi Mumtoz Mahal xotirasiga bag'ishlab ajoyib Toj Mahalni bunyod ettirgan SHohjahon va uning hukmronligi hamda boburiylar sulolasining eng gullab yashnagan davri aks ettirilgan.

2015 yil boburiylarga bag'ishlangan navbatdagi *"Traitors in the Shadows"* (*"Soyadagi g'animlar"*) romani chop etildi. Unda SHoxjaxonni taxtdan ketishi va Avrangzebni taxta kelishi, xududi kengaygan biroq kuchsizlangan, shonli va qachonlardir qudratli bo'lgan Buyuk Imperiyani inqirozga yuz tutishi hikoya qilinadi.

Yuqorida qayd etilgan asarlarni yaratishda mualliflar *"Boburnoma"*, *"Humoyunnoma"*, *"Akbarнома"* asarlari, Hindistonga qilgan sayohatlari davomida maxalliy halq vakillari xotiralari, eshitgan va kutubxonalaridan olgan ma'lumotlarga tayanganlar.

Shuningdek, Akbar davridan keyingi ma'lumotlarni yaratishda boburiylar hukmronligining so'ngi davrlariga shohid bo'lgan ko'plab yevropalik savdogarlar, tabiblar, siyosatchilar tomonidan yozib qoldirilgan manbalardan foydalanishgan. Har bir kitobning oxirida tarixiy ma'lumotnoma berilib, unda asarda berilgan

ma'lumotlarni qay biri haqiqat va qay biri to'qima ekanligi hamda u nima maqsadda berilganligini izohlab berilgan.¹⁰

Ta'kidlab o'tish joizki, Bobur shaxsini nafaqat Yevropaga, balki butun dunyoga mashhur bo'lishini ikki omil bilan izohlash mumkin. Birinchisi, Boburning Hindistonni zabt etishi va u yerda o'z hukmronligini o'rnatishi bo'lsa, ikkinchisi, uning ijodkor shaxs bo'lganligi, ya'ni u yaratgan "Boburnoma" asari va she'rlaridir. Ko'plab olimlar ular xoh yurtimiz, xoh xorijiy olimlar bo'lishidan qat'iy nazar, avvalo, "Boburnoma"ga murojaat qilganlar. Boburning hayot yo'li, jangu jadallari va u amalga oshirgan ezgu ishlarini o'rganish uchun hukmdorning o'zi yaratgan asari hamisha dasturulamal bo'lib xizmat qilib kelmoqda.¹¹

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Boltaboev H. Xorijda Boburshunoslik. –T.: 2008. - B 73.
2. Ibrohimov A. Boburnoma-buyuk asar. –Toshkent: 2000. - B 13.
3. Matyoqubova D. Badiiy matnning lisoniy tahlili. Ma`ruzalar matni. AnDU. 2008. 7-b
4. Moon Farzana. Babur the first moghul in India. Preface. Mehra Offset Press, Delhi. 1997.
5. Tursunov A. Nemiszabon adabiyotlarda sharqning buyuk siymolari talqini. PhD. Diss. Toshkent 2019.
6. Qoraboyev M. Boburiylar sulolasi haqida yangi badiiy asarlar. Maqola. Namangan 2018.
7. Qoraboyev M. Bobur va boburiyoda shaxzodalar xorijiy adiblar talqinida. Maqola. Namangan 2018.

¹⁰ M.Qoraboyev. Boburiylar sulolasi haqida yangi badiiy asarlar. Maqola. Namangan 2018.

¹¹ A.Tursunov. Nemiszabon adabiyotlarda sharqning buyuk siymolari talqini. PhD. Diss. Toshkent 2019.